

TA'LIMDA INNOVATSION G'OYALAR

Gafarova Shaxnoza Sharifovna

Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasi stajyor- o'qituvchisi

Annotatsiya: *ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni joriy etishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, masofaviy o'qitish, STEAM yondashuvi hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim kabi ilg'or pedagogik innovatsiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda innovatsion ta'lim uslublarining o'quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy asosda baholangan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, ta'lim, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, STEAM, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, masofaviy o'qitish, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, ta'lim sifati, interaktiv metodlar, kreativ fikrlash, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish.*

Аннотация: *Анализируются теоретические основы и практические механизмы внедрения инновационных идей в систему образования. Раскрывается роль передовых педагогических инноваций — цифровых технологий, искусственного интеллекта, дистанционного обучения, STEAM-подхода и компетентностно-ориентированного образования — в повышении эффективности образовательного процесса. В исследовании научно обосновано влияние инновационных методов обучения на развитие у учащихся творческого потенциала, критического мышления, коммуникативных и практических навыков.*

Ключевые слова: *Инновация, образование, цифровые технологии, искусственный интеллект, STEAM, компетентностно-ориентированное образование, дистанционное обучение, педагогические технологии, инновационный подход, качество образования, интерактивные методы, креативное мышление, модернизация образовательного процесса.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical foundations and practical mechanisms of introducing innovative ideas into the education system. It highlights the role of advanced pedagogical innovations—such as digital technologies, artificial intelligence, distance learning, the STEAM approach, and competence-based education—in enhancing the effectiveness of the learning process. The study provides a scientific assessment of the impact of innovative teaching methods on the development of students' creativity, critical thinking, communication, and practical skills.*

Keywords: *innovation, education, digital technologies, artificial intelligence, STEAM, competence-based education, distance learning, pedagogical technologies, innovative approach, quality of education, interactive methods, creative thinking, modernization of the educational process.*

Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” soʻzidan olingan boʻlib, “yangilanish” (yoki “oʻzgarish”), “in” qoʻshimchasi esa lotinchadan “yoʻnalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” koʻrinishida tarjima qilsak – “oʻzgarishlar yoʻnalishida” deb izohlanadi. “Innovatsiya” tushunchasi oʻzining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi oʻzgarishlar natijasida XX-asrning boshida Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qoʻllashga kiritgan dastlabki olimlardan hisoblanadi. Innovatsiya – tadbirkorlik ruhi bilan motivatsiyalangan ishlab chiqarish omillarining oʻzgarishi (yangi kombinatsiyalar). Maqsad – yangi tovar turlari, yangi ishlab chiqarish usullari, yangi xomashyo manbalari joriy qilish va foydalanish, yangi bozorlar va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini oʻzlashtirish (monopolizatsiya maqsadida qayta tashkil qilish). U oʻzining “ijodiy halokat” nazariyasi asosida innovatsion jarayonlarni oʻrganib chiqdi va tadbirkorlarning faoliyatini yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishda mavjud narsalardan foydalanishni boshqa zamonaviy usullar sifatida koʻrib chiqishni taklif qildi. Oʻqitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining mavjud boʻlib, Aktiv metodni qoʻllash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (oʻqituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi. Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda virtual dars shakllari misolida koʻrishimiz mumkin. Oʻqitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda koʻrishimiz mumkin. 1. Aktiv metod. Bu metodni dars jarayonida faollashuviga, maʼlum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi. 2. Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha bir tomonlama tushuncha hosil boʻlishiga olib keladi. 3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida oʻqituvchi va talabalarni birgalikdagi faol xatti-harakatlariga asoslanadi. Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda koʻrishimiz mumkin. A) standart dars – dars ichidagi struktura oʻzgarmaydi. B) nostandart dars – dars ichidagi struktura oʻzgaradi. V) virtual dars – yani masofadan oʻqitish. Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy oʻrin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subʼektiv yangilikka qiziqish uygʻotadi. Xususiy yangilik zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni koʻzda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi maʼlum

unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I.Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi. Ta'lim sohasida innovatsion metodlar o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish maqsadida ishlab chiqilgan yangi yondashuvlar va texnikalardir. Ushbu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o'z-o'zini o'rganish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Innovatsion ta'limning nazariy asoslari quyidagi tamoyillarga tayanadi: konstruktivistik yondashuv, o'quvchilarning bilimni mustaqil yaratishi va izlanish orqali o'zlashtirishi; differensial ta'lim, ya'ni har bir o'quvchining individual qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos metodlarni qo'llash; faol ta'lim modeli, o'quvchini jarayon markaziga qo'yish, interaktiv metodlar va amaliy mashg'ulotlarga urg'u berish; kompetensiyaga asoslangan yondashuv, ya'ni nazariy bilimdan ko'ra amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ahamiyat berish. Bu nazariy asoslar ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash uchun ilmiy poydevor yaratadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Elektron ta'lim platformalari (LMS) orqali dars jarayonini boshqarish osonlashadi, sun'iy intellekt esa individual ta'lim trayektoriyalarini tuzib beradi, o'quvchining xatolarini tahlil qiladi va mos mashqlarni taklif qiladi. Virtual va qo'shimcha reallik (VR/AR) fanlarni vizual va interaktiv tarzda o'rgatadi. Big Data o'quv jarayonini monitoring qilish va sifatni baholashda qo'llanadi. Bu texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar motivatsiyasini kuchaytirish va o'qituvchi mehnatini yengillashtirishga xizmat qiladi. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi fanlararo integratsiyani ta'minlaydi, o'quvchilarda muammoga yo'naltirilgan fikrlashni rivojlantiradi va ijodiy tajriba, loyiha ishlari hamda tadqiqot asosida o'rganishni rag'batlantiradi. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim esa o'quvchi bilimni amalda qo'llay olishi, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishi va kommunikativ hamda jamoada ishlash malakasini rivojlantirishga qaratilgan.

Pandemiya davri masofaviy o'qitishning zarurligini ko'rsatdi. Uning asosiy afzalliklari hududiy cheklovsiz ta'lim olish imkoniyati, vaqtni moslashuvchan boshqarish, ko'plab onlayn resurslar orqali mustaqil o'qish va ta'limning inkluzivligini ta'minlashdir. Biroq, masofaviy ta'limda texnik infratuzilma, o'quvchi motivatsiyasi va pedagoglarning raqamli kompetensiyalari muhim omil hisoblanadi. Innovatsion metodlar o'quvchilarda kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shuningdek, innovatsion

texnologiyalar o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni joriy etish zamonaviy jamiyatning strategik talabi bo'lib, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, STEAM yondashuvi va kompetensiyaga asoslangan ta'limning qo'llanilishi o'quv jarayonini optimallashtiradi, ta'lim sifatini oshiradi va o'quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlaydi. Innovatsion yondashuvlar ta'limda samaradorlik, interaktivlik va kreativlikka asoslangan yangi bosqichni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Санто Б. Инновация и глобальный интеллектуализм // Инновации. 2006. — № 9; 5.
2. Хамрокулова, Ш. Э. (2021). Экологик тарбия механизмларини такомиллаштиришда инновацион технологияларнинг аҳамияти. Academic research in educational sciences, 2(NUU Conference 1), 286-289.
3. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М., Директ-Медиа, 2007.
4. Karl Rojers Shaxs bo'yicha muofiqlashtirilgan tadqiqotlar. 1949 y.
5. Kuzmina. N.T Ilg'or pedagogic texnologiyalar. T. 1999 y.
6. Turg'unov S.T. Ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat.
7. <https://zenodo.org/records/7608610/files/304-315.pdf?download=1>
8. <https://zenodo.org/records/7608610>
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-ta-lim-metodlari-haqida/viewer>